

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KORREKSIYON ISHLARNI OLIB BORISHNING SAMARADORLIGI***O'raaliyeva Lobar Baxtiyor qizi**JDPU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy va fiziologik jihatdan kamchiliklari bor bolalar bilan korreksiya ishlarini olib borish, uning muhimligi, bu ishlarda ota ona va tarbiyachining o'rni va masuliyati hamda korreksiya o'ld olimlarning fikrlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** bola, MTT, anomal bolalar, korreksion ishlar, logoped, korreksion mashg'ulotlar, ota ona tarbiyachi faoliyati, surdopedagogika, tiflopedagogika.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga berilayotgan e'tibor bolalarni maktab ta'limiga sifatli va bilimli tarzda yetkazib berish uchun imkoniyatlarni yaratmoqda. Barchamizga ma'lumki hozirgi kunda maktabgacha ta'limga bo'lgan ehtiyoj, oldingi bo'g'chalarga bo'lgan talablardan ancha yuqori ko'rsatkichda. Vaholangki, eski bog'cha tizimini oladigan bo'lsak, u paytlari bog'chalar birinchi aholi honadonlarida tashkil etilgan bo'lib, faqatgina bolaga qarash vazifasini o'tagan. Ta'lim tarbiya ishlari olib borilmagan. Bu bog'chalarga faqat ishlaydigan ota onalar farzandlari jalb etilgan va bog'cha unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Davrlar o'tishi bilan bog'cha tizimi Maktabgacha ta'lim tashkilotiga aylanib, takomillashib, rivojlanib bugungi kungi qiyofasiga yetib keldi. O'tgan davr mobaynida bolarni har tomonlama sog'lom, barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish yo'lida ko'pgina islohotlar olib borilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016- yil 29-dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yana takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2707 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30- sentyabrdagi " Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" PF 5198-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 2019-yil 10-maydagi PQ- 4312 /3106 sonli qarori maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ushbu qaror qilingan qarorlar, farmonlar, hujjatlarning barchasi maktabgacha ta'lim tizimini tubdan islox qilish, rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, sifatli ta'lim tarbiyani joriy etish, har tomonlama barkamol shaxsni voyaga yetkazishga qaratilgan. Bu ishlarni amalga oshirishda Uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'rni nihoyatda muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari inshootlarini

zamonaviy tashkil etibgina qolmay uning negizida olib boriladigan ta'lim tarbiya ishlarini ham sifatli va zamonaviy ta'lim tarbiya tizimi asosida amalga oshirish ham yo'lga qo'yilmoqda. Buning uchun esa birinchi navbatda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrov sonini ko'paytirish maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotida sog'lom psixologik muhitni yaratish, malakali pedagog kadrlarni jalb qilish, talim tarbiyani birgalikda olib borish, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash va maktab ta'limi tizimiga sifatli yetkazib berish kabi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi. Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'lliq qamrovni amalga oshirish maqsadida hozirgi kunda maktabgacha ta'limning turli xil turlarini ko'rishimiz mumkin: bular Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, Xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari, Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatli ta'lim tarbiyani amalga oshirishning asosiy sharti bu unda psixologik sog'lom muhitni yaratish hisoblanadi. Bu borada esa maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tarbiyachi bilan birgalikda ish olib borish uchun psixologlar ham jalb etilgan. Psixolog qanday ishlarni olib borishi kerak, ya'ni psixolog bolalar bilan ishlash jarayonida ularda kuzatilayotgan ruhiy yoki fiziologik jihatdan o'zgarishlar, kamchiliklar, og'ish kabi salbiy jarayonlarni aniqlash va o'z vaqtida oldini olish va tuzatish ishlarini tarbiyachi bilan hamkorlikda olib boradi. Ko'pgina kasalliklar o'zgarishlar ko'p hollarda maktabgacha yosh davrida kuzatiladi ya'ni 3 yoshdan 7 yosh oralig'ida. BU davrda bolalarda ruhiy kamchiliklar ham kuzatiladi, ya'ni bolani shakllanishida atrof muhitning ta'siri yuqori hisoblanadi va shu asosida bolalar orasida agressiv, uyatchan, qo'rqqoq, o'zlashtirishi past va shu kabi anomaliyaning ko'pgina yengil va og'ir turlarini kuzatishimiz mumkin. Bu jarayonlarni oldini olish va bartaraf etish asnosida tarbiyachi va psixologning o'rni yuqoridir. Bolada kuzatilayotgan o'zgarishlarni ko'pgina ota onalar payqamasliklari mumkin. Ya'ni bolani nutqida bo'layotgan kamchiliklarni, yoki ularda kuzatilayotgan agressiya holatlarini erkalikka yo'yishlari, ulardagi qo'rqqoqlik alomatlariga e'tibor bermasliklari, ularda kuzatilayotgan uyatchanlik holatlarini o'tib ketadigan jarayon sifatida ko'rishlari hamda bolalarda kuzatiladigan eshitishida nuqsoni borligi, nutqida nuqsoni borligi, aqliy faoliyatida ortda qolish holatlarini kech anglashlari kabi holatlarni kuzatuv jarayonlarimizda ko'p guvohi bo'lganmiz. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim tarbiya olayotgan bola ota onasi yonida emas balki ko'p vaqtini maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkazadi. Tarbiyachi ota onaga nisbatan bolalar bilan ko'proq shug'ullanadi, Shu sababdan ham bolada kuzatilayotgan ishlarni vaqtida payqashi va oldini olishi kerak bo'ladi. Bolalarda ko'p kuzatiladigan kamchiliklardan biri bu nutqida bo'ladigan kamchiliklardir. Ota onalar ko'pgina hollarda bolarni tilini kech chiqishga e'tibor berishmaydi. Ammo bu vaqtida oldi olinmasa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bolani nutqida nuqsoni borligini payqagan tarbiyachi albatda nutqiy

kamchiliklar bilan shug'ullanuvchi Logopedga murojat qilishi kerak bo'ladi va bu haqida bolani ota onasini ogohlantirishi zarur. Nutqiy kamchilikni ham yengil va og'ir turlari kuzatiladi. Eshitish va nutq bir biri bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki bola nutqining rivojlanishi uchun uning eshitish organining qobiliyati normal bo'lishi kerak. Ya'ni u eshitgan so'zlarini takrorlaydi va nutqi rivojlanadi. Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi omillar ichida tashqi va ichki omillar, shuningdek atrof muhit ham ta'sirini o'tkazadi. Eshitishi normal bo'lgan bolaning kar -soqov ota ona qo'lida tarbiyalanishi, surunkali kasal bo'lib tez-tez kasalxonalarda davolanuvchi bolalarning nutqi rivojlanmay qolishi, oilada uzoq vaqt davom etuvchi ruhiy shikastlanish va ikki tillilik -- bolada duduqlanishning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi, nutqiy muhitning nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga misol bo'ladi. Aynan shunday jarayonlarni vaqtida payqash va oldini olishda tarbiyachining o'rni kattadir. U nutq buzilishining yengil holatlarida kuzatilgan vaqtda logoped bilan hamkorlikda korreksiya ishlarini va mashg'ulotlarini olib borishi kerak bo'ladi. Bu borada qadimgi Rim pedagogi M.F.Kvintilian o'zini " notiq tarbiyalovchi" kishi deb hisoblagani uchun bolaning nutqining o'zgarishiga, nutqda uchraydigan nuqsonlarga katta e'tibor berdi. U bolalarning nutqi yoshlik chog'idanoq sof bo'lishi uchun kurashdi, va shu sababli bolalarni uyda tarbiyalamoq uchun olinadigan enaga va murabbiylarning talaffuzi yaxshi bo'lishi kerak deya uqtiradi. Vaholangki, nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarda intellektual rivojlanish surati orqada qolishi, u atrofdagilar bilan kam muloqotga kirishadi, shunga bog'liq holda tasavvur doirasi chegaralanadi, tafakkurning rivojlanishi tempi orqada qoladi. Bolalikdagi nutqiy buzilishlarga e'tiborsiz qarash gapirishdagi bir umrlik nuqsonlarga sabab bo'lishi mumkin. Kamchiliklarni to'g'ri, samarali, va o'z vaqtida hal etish esa ota ona, tarbiyachi va logopedlarning zimmasida. Bolalarda kuzatiladigan nuqsonlardan yana biri eshitishida nuqsoni bor bolalar bo'lib, bu nuqson belgilari ham bolalikda yuzaga chiqadigan jarayon hisoblanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ularga ta'lim tarbiya berish jarayonlari tarbiyachi va logopedning vazifalaridan hisoblanadi. Vaholangki, maktabgacha davr eshitishida nuqsoni bor bolalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir, zero korreksion pedagogik tadbirlarning barvaqt boshlanishi, bola o'sishidagi kamchiliklarning, oldini olishga, shuningdek ijtimoiy faol, hartomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yordam beradi. Eshitish qobiliyatining pasayishi bolaning umumiy va psixik rivojlanishiga, eng asosiysi nutqining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eshitmaydigan va zaif eshituvchi bola maxsus o'rgatilib borilmasa, u gapira olmaydi, atrofdagilar bilan muomalada esa chegaralangan miqdordagi imo-ishoratlardan foydalanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ilk yoshdan boshlab, maxsus ta'lim tarbiya berilgan holda, ularning umumiy rivojlanishidagi, orqada qolishning oldini olish mavjud nuqsonlarni korreksiyalash, va ularning har tomonlama kamol topishini ta'minlash mumkin bo'ladi. Psixologlar

L.S.Vigotskiy , I.M.Solovev , T.V,Rozanovalarning ilmiy nazariyalariga ko'ra psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchilik bolaning jismoniy va psixik rivojlanishining buzilishiga olib kelsa, bunday bola anomal hisoblanadi. Eshitishning pasayishi bolaning nutqiga salbiy tasirini ko'rsatadi. Eshitishning pasayishi bilan bog'liq , umumiy va xususiy jihatlarni tushunish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini bilmoq zarur. Barcha kar bolalar turli miqdordagi eshitish qoldiqlariga ega bo'ladilar. Maxsus eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar borliqdagi tovushlarni bilishga hizmat qiladi. hamda og'zaki nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi tizimini yaratishda , bolalarni saralash mezonlarini belgilashda, differensial ta'limni yaratishda , samarali ta'lim tarbiya usullarini tanlashda R.M.BOSKIS klassifikatsiyasi , muhim ahamiyat kasb etadi. L.S.Vgotskiyning bola psixikasining rivojlanishidagi birlamchi va ikkilamchi defektlar , to'g'risidagi nazariyasiga asoslanib , R.M.BOSKIS, eshiishdagi nuqsonlarni farqlash bo'yicha, pedagogik tasniflash yo'llarini ishlab chiqdi. Ilk davrda eshituvning pasayishi , bolalarning psixik rivojlanishiga ta;sir ko'rsatadi , rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Eshitishida nuqsoni bor bolalarni to'g'ri tushunish uchun , ular tomonidan mustaqil ravishda nutqni egallash imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Eshituv qobiliyati buzilgan bolalar eshituvining pasayishi va nutqiy saviyasiga ko'ra , xilma xil bo'ladilar. Nutqning turli saviyada bo'lishi quyidagi omillarga bog'liqdir. 1. Eshitishning pasayish darajasiga , 2. nuqsonning paydo bo'lishiga, 3. eshituv nuqsonining paydo bo'lishidan keyingi pedagogik shart-sharoitlarga 4. bolaning alohida xususiyatlariga . Eshitish qobiliyati qanchalik ko'p shikastlansa, nutqqa shunchalik ko'p zarar tegadi.Eshitish qobiliyati og'ir bo'lgan bolalarni maxsus o'qitilmasa umuman rivojlanish bo'lmaydi. Yuqoridagi malumotlardan ko'rinib turibdiki bolalarda kuzatiladigan, anomaliyaning yengil ko'rinishlari hisoblangan eshitish va nutq jarayonlari ayni maktabgacha yosh davrida namoyon bo;ladi va aniqlanadi , oldi olinadi. Shu sababdan ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida korreksiya ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda bolalar bilan ishlovchi tarbiyachi va aniqlangan nuqsonlar bilan ishlovchi mutaxassislarning hizmati katta hisoblanib, o'z vatqida oldini olish, davolash ishlarini olib borish bolaning kelgusi hayotini samarali yaratishga zamin yaratadi . Bolalarda kuzatiladigan anomaliyaning yana bir turidan biri ko'zida nuqsoni bor bolalar bilan korreksiya ishlarni olib borish hisoblanib , ko'pgina hollarda bunday nuqsoni bor bolalar maxsus ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya oladi. Ammo ko'rish darajasining yengil holatlari kuzatilgan bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'qitiladi. Shunday bo'lsada bunday bolalar tarbiyachi va shifokor nazoratida bo'lishi zarur. Tarbiyachi bolalarga mashg'ulotlar o'tish jarayonida bolalarning ko'zini tolliq tirmaydigan andozalar va materiallardan foydalinishi zarur. SHu kabi

nuqsonlarni bartaraf etsih va oldini olish ishlari maktabgacha talim yoshidagi bolalar bilan bog'liq ekan , Maktabgacha yoshdagi bolalarda korreksion ishlarni amalga oshirish ha muhim hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim to'g'risidagi nizam
2. Z.Irohimova M.G'aybullayeva . bolalar bog'chalari uchun dasturlar . tevarak -atrof bilan tanishtirish , nutq o'stirish , badiiy adabiyot.
3. V.S. Raxmonova " Maxsus pedagogika" Toshkent 2004
4. G"ulomjonova Azizaxon , SHukurova Sojida "Talqin va tadqiqotlar " ilmiy-uslubiy jurnali
5. SH.A.Sodiqova " Maktabgacha pedagogika" darslik 2012